

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«KELISHILGAN»

**Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi**

«TASDIQLAYMAN»

**Namangan davlat universiteti rektori
S.Turg‘unov**



“ ” 2021-yil

“ ” 2021-yil

**5110900-Pedagogika va psixologiya ta‘lim yo‘nalishi
negizidagi**

- 5A110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi
- 5A110903 – Ta‘lim muassasalarining boshqaruvi

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun mutaxassislik
fanlaridan**

DASTUR

Namangan – 2021

Annotatsiya

Mazkur dastur 5110900-Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining 2017/2018 ўquv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi Umumiy pedagogika, "Pedagogika nazariyasi", "Pedagogika tarixi", "Pedagogik texnologiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Maktabgacha pedagogika asoslari", "Xalq pedagogikasi", "Boshqaruv pedagogikasi", "Kasbiy kompetentlik", "Ta'lim menejmenti" fanlari bo'yicha 5A110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi(faoliyat turi bo'yicha), 5A110903 – Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga kiruvchilar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar:

O'.M. Asqarova – NamDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası – Pedagogika nazariyasi va tarixi mudiri, p.f.d., professor;

Q.O.SHodmanov – NamDU, Ta'lim menejmenti kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent.

M.S.Nishonov– NamDU, Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası dotsenti, p.f.n.

Taqrizchilar:

X. Raxmatova – NamDU, Pedagogia nazariyasi va tarixi kafedrası kafedrası dotsenti, p.f.n;

A.X.Satarov – NamDU, NamDU, Ta'lim menejmenti kafedrası dotsenti, p.f.n.

Dastur Pedagogika-psixologiya fakultetining 2021-yil 29-iyundagi 12-sonli Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kirish

Mazkur dastur 5A110901 - "Pedagogia nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilarining pedagogikadan o'qitiladigan fanlarning nazariy asoslari, ta'lim konsepsiyasini bilishi, umumiy ilmiy uslublar pedagogika fanlari tizimi asosida pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, oila pedagogikasi kabi fanlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha layoqatlarini aniqlashga mo'ljallangan.

Dasturning maqsadi magistraturaga kiruvchilarning bakalavriaturani ilmiy-metodik muammolarini tadqiqot qilishda zarur bo'ladigan ilmiy-bilish nazariyasi, pedagogik fanlarni didaktik tamoyillari, uslublari o'zlashtirganligini aniqlash. Shuningdek, magistraturaga kiruvchilarni o'qitiladigan fanlarning nazariy asoslari, ta'lim konsepsiyasini bilishi, umumiy ilmiy uslublar, pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, oila pedagogikasi, boycha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uslublari va tamoyillari o'zlashtirganlik va amalda qo'llay olish malakalari darajasini aniqlash.

Dasturning vazifalari: magistraturaga kiruvchilarning

- Pedagogika tadqiqotlari bo'yicha ilmiy va uslubiy adabiyotlar bilan tanishganligi darajasini;
- Pedagogika nazariyasi va tarixi ijtimoiy pedagogika, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, oila pedagogikasi shuningdek tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasini tadqiq qilishning ilmiy yo'nalishlari bilishi darajasini;
- tadqiqot jarayonida pedagogika o'qituvchisining aniq vazifasini anglay olish darajasini;
- pedagogika tadqiqotlar sohasining ilmiy yo'nalishlari, tadqiqotlar sohasida ilmiy mushohada va ilmiy tahlil masalalarini o'zlashtira olganliklarini;
- ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish malakalarining mavjudligini;
- ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqida umumiy tushunchalarga ega ekanligini ko'rsatib berish.

Dasturning asosiy mazmuni

Mazkur dasturning asosiy mazmuni 5A110901 - "Pedagogia nazariyasi va tarixi" mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga qabul jarayonida o'tkaziladigan mutaxassislik bo'yicha suhbat jarayonida magistraturaga kiruvchilarning bakalavr ta'lim bosqichida olgan bilimlariga hamda fanlar bo'yicha mustaqil ta'limga tayyorgarlik jarayonlarida, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi bajarish jarayonida shakllantirilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, tarixiy tahlil va tarixiy taqqoslash orqali tarixiy dalil va manbalarning ilmiy tadqiqot jarayonlariga jalb etish, ilmiy tadqiqot ishlari va manbaviy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarining shakllantirilganligi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqidagi umumiy tushunchalari, ilmiy mushohada qila olish va yangi g'oyalar shakllantira olish qobiliyati, ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish mazmuni bilan tanishganligi, tadqiqot natijalarini tahlil qila olish qobiliyatining mavjudligi, fanning ilmiy va ta'limiy xususiyatlarini o'zlashtirish jarayonida o'zlashtirgan bilimlari va malakalarini aniqlashga yo'naltirilgan masalalarni qamrab olgan.

Umumiy pedagogika fani bo'yicha mavzular

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash tizimi va uning asosiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Pedagogik fanlar tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.

Pedagogik tizimlar va ularning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim tizimlariga umumiy tavsif. Pedagogik jarayonning mohiyati. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Yagona pedagogik jarayonni yaratish mantig'i va sharoitlari.

Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini tashkil etish kontseptsiyasi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining o'quv rejasi. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari tavsifi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining davlat ta'lim standartlari.

Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. SHarq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil qilish shakllari haqida tushuncha. Ta'limni tashkil qilishning an'anaviy sinf-dars shakli. Dars turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllari: o'quv dialogi, munozara, didaktik o'yinlar, trening va boshq. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ma'ruza va seminar. O'quv ishlarini tashkil qilishning darsdan va ta'lim muassasasidan tashqari shakllari.

Pedagogika nazariyasi fani bo'yicha mavzular

Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati. Tarbiya jarayonining tizimi va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni mazmuni. Tarbiya tamoyillari.

Jamoa tushunchasi. Bolalar jamoasining shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Bolalar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. Bolalar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. SHarq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida.

Axloq ijtimoiy ong, ta'sir etish, va tarbiya shakli sifatida. SHarq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Oilaviy hayotga axloqiy tayyorgarlik.

Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish.

Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari.

Oila, uning tarbiyaviy funksiyasi. Oilaviy tarbiyaning huquqiy asoslari. Oila mustahkamligi haqida davlatimiz g'amxo'rligi. SHarq mutafakkirlari oilaviy tarbiya haqida. O'quvchilarning o'quv faoliyatida oilaning g'amxo'rligi. Oilaviy tarbiya qoidalari.

Pedagogika tarixi fani bo'yicha mavzular

Pedagogika tarixi fanining maqsadi, vazifasi, bahsi, boshqa fanlar bilan aloqasi, manbalari va metodologik asoslari. Pedagogika tarixi fanining davrlashtirish muammolari va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati.

Eng qadimgi manbalarda inson ta'lim - tarbiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holatlar, fikrlar, qarashlar va ta'limotlar. Tarbiya masalalarining kelib chiqishdagi manbalar va ularning insonning shakllanishidagi mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy jamoa tuzumlaridagi odamlarning turmush tarzi va u davrdagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari.

“Avesto” ga asoslangan pedagogik ta’limot va uning hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati.

Al-G’azzoliy islom falsafasi va pedagogikasining asoschisi sifatida. “Kimyoi saodat” asari va uning ta’lim taraqqiyotidagi o’rni. Hadis ilmining paydo bo’lishi va uning ta’limiy-tarbiyaviy jihatlarini boyitishda Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Az-Zamaxshariy, Al-Marg’iloniy, Abu Nasr al-Motrudiy, Xoja Ahmad Yassaviy va shu kabi hadis ilmi sohiblarining xizmatlari. Imom al-Buxoriyning “As-Sahih”, “Al-adab al-muffad” asarlarining inson ma’naviy kamolotini topishidagi o’rni.

SHarq xalqlari ta’limi taraqqiyotida SHarq ulug’ allomalarining ta’limiy-axloqiy asarlarining paydo bo’lishi va unda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg’oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Yusuf Xos Xojib, Xoja Yusuf Hamadoniy, Mahmud Qashg’oriylarning boy ma’naviy meroslarining qisqacha mazmun-mohiyati.

Al-Xorazmiy, Al-Farg’oniy, Al-Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy merosi va ularning ta’limdagi didaktik ta’limotlari. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon al-Beruniylarning ijtimoiy pedagogik ta’lim uchun didaktik qarashlari va g’oyalarining qisqacha bayoni.

Mahmud Qashg’oriy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiylarning ta’limiy-axloqiy, Mahmud Qashg’oriyning “Devoni lug’ati turk” asari va uning ta’limiy ahamiyati. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg’u-bilig” asari – turkiy tilda yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid dastlabki asar sifatida.

Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-Haqoyiq” asarlarida ta’lim-tarbiyaga oid muammolar yechimi haqida qisqacha ma’lumot.

Unsurul Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari ta’limiy ahamiyatga ega pandnoma sifatida ifodalanishi.

XII-XIV asrlarda Movarounnahrda ta’lim-tarbiya va pedagogik qarashlarning Ismoil Jurjoniy, Mirzo Ulug’bek, G’iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi, Najmiddin Kubro, Lutfiy kabilar asarlarida ifodalanishi.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan, ta’lim-tarbiyaning ravnaq topishi. Sohibqiron Amir Temurning ma’rifiy qarashlari, ta’limga homiyligi va ularning ta’lim taraqqiyotidagi ahamiyati.

Mirzo Ulug’bekning ilmiy merosi (madrasadagi ta’lim mazmuniga va ommaviy ta’limga, ya’ni dorilfunundagi ta’limga qo’ygan talablari va observatoriyadagi ilmiy ishlari bilan O’rta Osiyoda dastlab akademianing tashkil etilish) va tarbiyaviy qarashlari. Tabiiy fanlarni o’qitishni rivojlanishi, Mirzo Ulug’bekning ilm-ma’rifat sohasidagi homiyliklari va uning davridagi ta’lim tizimi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ma’rifiy-axloqiy qarashlari. “Xatti Boburiy” va “Boburnoma” asarlarining didaktik xususiyatlari va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiylarning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Alisher Navoiyning adolat tantanasi haqidagi ta’limoti va uning ta’limiy-axloqiy asarlarida ilgari surilgan g’oyalar.

Turkiston zaminida ilg’or pedagogik qarashlarning yuzaga chiqishi va unda Jahon Otin, Furqat, Said Ahmad Siddiqiylarning ta’limiy qarashlari hamda ushbu qarashlarning joriy etilishida ularning pedagogik-tashkilotchilik faoliyatlari.

Turkiston diyorida jadidchilik harakatiga asoslangan yangi usul ta’lim tizimining vujudga kelishi va ularning ta’lim tizimi takomillashuvidagi ahamiyati. Ismoil G’aspirali, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, To’lagan Xo’jamyorov – Tavallo, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulhamid Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo’jaev, Polvonniyoz Xojiyusupov, Ashurali Zohiriy, Abdulhamid Burxonov – Munzim, Muhammadsharif So’fizoda, Musa Saidjonov, Boboovun Salimov, Ibrat, Abduqodir SHokuriy, Saidahmadxo’ja Siddiqiy – Ajziy, Obidjon Mahmudov, Fayzulla Xo’jaev, Saidnosir Mirjalolov, Xoji Muin, Sattarxon Abdulg’afforov, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa

marifatparvarlarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” darsligi va uning ta’limiy ahamiyati.

Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limoti va tarbiya yo’nalishlari bo’yicha qarashlari hamda uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari va uning yaratilishi tavsifi. Asardagi asosiy g’oya va uning ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Abdulla Avloniy faoliyatiga bergan bahosi.

O’zbekistonda 1917-1924 yillardagi ma’naviy-madaniy muhit hamda milliy ta’lim tizimini shakllantirish borasidagi tashkiliy-pedagogik faoliyat.

Mustaqilik yillarida ta’lim taraqqiyoti va uning mazmunini modernizatsiya qilishning ijtimoiy jihatidan zaruriyligi.

Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta’lim tizimi va ular taraqqiyotlarining asosiy yo’nalishlari. AQSH da ta’lim tizimining tuzilishi va uning o’ziga xos xususiyatlari. Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Koreya, Rossiya, Ukraina kabi rivojlangan mamlakatlardagi ta’lim tizimlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari.

Rivojlangan xorijiy davlatlar va Mustaqil O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi hamkorliklar va ular natijalarining Vatanimizdagi ta’lim taraqqiyotiga ta’siri.

Pedagogik texnologiya fani bo’yicha mavzular

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.

Pedagogik texnologiya fan sifatida. Pedagogik texnologiyaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik texnologiyaning metodologik asoslari. “Texnologiya” tushunchasi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasining paydo bo’lishi. Pedagogik texnologiyaning tarixiy rivojlanish davrlari. XX asrda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi. Pedagogik texnologiyalar rivojining zamonaviy bosqichi.

An’anaviy sinf-dars texnologiyasining farqli belgilari. An’anaviy ta’limning tasnifiy tavsifi. An’anaviy ta’lim tamoyillari. An’anaviy ta’lim mazmuni va metodikasining o’ziga xosliklari. Ta’limning an’anaviy shakllarining ijobiy va salbiy tomonlari.

To’liq o’zlashtirish texnologiyasi va M. V. Klarin materiali bo’yicha to’liq o’zlashtirish metodikasi. To’liq o’zlashtirish texnologiyasining asosiy tavsifi. Ta’limning mazkur texnologiyasining ketma-ketlik qoidasi.

Tabaqalashtirilgan darajadagi texnologiya: individual o’ziga xoslik-lari, yoshi, qiziqishlari, aqliy rivojlanish darajasi, sog’lomlik darajasi va b.

Individual ta’lim texnologiyasi: ta’lim har bir o’quvchining qobili-yatlari bilan bog’liqlikda olib boriladi.

Axborot texnologiyalari: ta’limiy va nazorat qiluvchi dasturlar.

Ta’limning jamoaviy va guruhiy texnologiyasi.

Bolaning intellektual qobiliyatini rivojlantirish – barcha rivojlan-tiruvchi ta’lim texnologiyalarining asosi.

Interfaol texnologiyalar. Texnologik karta.

Ta’limning uch bosqichli modeli. CHakiriq, Anglash, Fikrlash. Uch bosqichning vazifalari. Tanqidiy fikrlash asoslari.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo’yicha mavzular

Tarbiyaviy ish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Tarbiyaviy ish metodi-kasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Tarbiyaviy ish metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tarbiya tushunchasi. Tarbiya – umuminsoniy qadriyat sifatida. Tarbiya paradigmalari. Tarbiya jarayonida bola shaxsi.

Insonparvarlik tarbiyasi: mazmun va mohiyati. Insonparvarlik tarbiyasi qonuniyatlari va tamoyillari. Insonparvarlik tarbiyasi metod va texnologiyalari.

Tarbiyaviy ish: tarkibi va tuzilishi. Ijtimoiy yo’naltirilgan tarbiyaviy ish. Axloqiy tarbiyaviy ish. Estetik va jismoniy tarbiyaviy ish. Ekologik va mehnat tarbiyaviy ishi.

Guruh (sinf) rahbari va uning faoliyati mazmuni. Guruh (sinf) rahbarining vazifalari, huquq va majburiyatlari. Guruh (sinf) rahbarining o'quvchilar bilan olib boradigan ish shakllari.

“Kamalak” bolalar va “Kamolot” yoshlar harakatining ish jarayonini o'rganish. Yoshlar harakatining faoliyatini tahlil qilish.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash mezonlari. Tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash metodikasi. Tashxislash natijalarini qayd etish.

Maktabgacha pedagogika asoslari fani bo'yicha mavzular

Maktabgacha pedagogika asoslari va uning mohiyati. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Maktabgacha pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Bola shaxsining shakllanishi. O'sish va rivojlanish. Bola shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Maktabgacha ta'lim yosh davrlari va ularning o'ziga xosliklari.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi va unga qo'yiladigan talablar. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarini tayyorlash tizimi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyaning maqsadi, vazifalari. Tarbiyaning umumiy metodlari. Jismoniy tarbiya. Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi. Estetik tarbiya.

O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. O'yinning o'ziga xosligi va tasnifi. Ijodiy o'yinlar. Roli o'yinlar. Sahnalashtiruvchi o'yinlar. Didaktik o'yinlar. O'yinchoq va uning ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar hayotini tashkil etish. Bolalar jamoasini shakllantirish. Bolalarga individual yondashish usullari. Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik jarayonni rejalashtirish. Ta'lim-tarbiya ishlarini hisobga olish.

Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar. Maktabga ta'lim muassasasi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqa shakllari.

Bolalar tarbiyasida oilaning roli. Maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari.

Xalq pedagogikasi fani bo'yicha mavzular

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi, vazifalari, mazmuni, xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etish, xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi, xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, xalq pedagogikasi va o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar, xalq pedagogikasida milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar, xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va madaniyatining o'rni, o'zbek xalqining muomala madaniyati, ahloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib-qoidalarini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati

Xalq pedagogikasining pedagogika tizimidagi o'rni. Kursning predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Xalq pedagogikasining boshqa pedagogika fanlaridan farqi. Mazkur fanni o'rganishning dolzarbligi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning milliy yo'nalishiga qo'yilgan talablar.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyati. Xalq pedagogikasida bola -ta'lim va tarbiya ob'ekti va sub'ekti sifatida. Umumiy o'zbek ta'lim tizimi, AL va KHKlarida xalq pedagogikasi g'oyalari va tarbiya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.

Oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Xalq pedagogikasida oila obrazi. Sevgi va oilaviy munosabatlar. Bola tarbiyasida oilaning muhim ahamiyat kasb etishi. Ota-ona tarbiyachi sifatida. Oilada buvilar va buvalarning tarbiyadagi o'rni. O'zbek xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiya haqidagi tasavvurlarning ifodalanishi. Xalq pedagogikasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash.

Xalq pedagogikasida tushuntirish, namuna ko'rsatish, ogohlantirish, iltimos qilish, koyish va boshqa bir qator tarbiyalash metodlarining mavjudligi va ulardan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari. Xalq pedagogikasi va avlodlar vorisligi.

Oila pedagogikasi

Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifa-lari. Oila pedagogikasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasi haqidagi qarashlari. Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi. Yan. Amos Komenskiy oilada tarbiyaning o'rni haqida. Ma'rifatparvar mutafakkirlarning oila tarbiyasiga oid fikrlari. Rus pedagoglarining oila pedagogikasiga oid qarashlari.

Qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda oila tarbiyasiga oid qarashlar. «Qur'oni Karim» va hadislar oila tarbiyasining muhim manbalari sifatida. O'rta asrlarda oila pedagogikasiga oid fikrlar. Ma'rifatparvar o'zbek pedagog-olimlari oila tarbiyasi xususida. XX asrda oila tarbiyasiga doir yondashuvlar va ularning mohiyati. Mustaqillik yillarida oila tarbiyasi masalasi.

Oila – mustaqillik yillarida davlat siyosatidagi ustivor masala sifatida. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash. Oilada yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila va jamoatchilik hamkorligi.

Boshqaruv pedagogikasi fani bo'yicha mavzular

Boshqaruv metodlari. Ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.

Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.

Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari. Boshqarish omillari. Boshqarish qoidalari. Boshqaruv qarorlari.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etishning funktsiya va metodlari. Pedagogik jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim jarayoni samaradorligi.

Ta'lim menejmenti fani bo'yicha mavzular.

Menejment fani predmeti. Zamonaviy ta'lim muassasasi rahbarlarining funktsional vazifalari.

Ta'limning Xalqaro standartlashtirish tizimlari.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi.

Ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish. Boshqaruv“(Menejment)”tushunchasining mohiyati.

Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi.

Boshqaruvda tizimli yondashuv.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli. Jamoaviy boshqaruv organlari.

Ta'lim muassasalari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Rahbar kompetentsiyasining shakllanish bosqichlari. Rahbar kompetentligi komponentlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni qaysi davlat organi o'z zimmasiga oladi va uning vakolatlari.

Ta'lim menejmentining vazifalari. Strategik boshqaruv va rejalashtirish.

Boshqaruv jarayonida pedagogika fanlarining vazifalari. Boshqaruv funktsiyalari va boshqaruv metodlari. Boshqaruv algoritmi. Boshqaruv qarorlari. Boshqaruvda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari. Pedagogik tadqiqot funktsiyalari. Boshqaruv jarayonlarida psixologiya fanlarining vazifalari. Ta'lim muassasalarida ixtilof va stresslarni boshqarish. Ta'lim muassasalarida personalni boshqarish.

Boshqaruvda mehnat munosabatlari etikasi. Boshqaruvda motivlashtirish va motivlashtirish nazariyalari. Ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati samaradorligi.

Rahbar va lider tushunchalarini bilishi. boshqaruvda rahbarlik uslublarini bilishi.

Ta'lim muassasalarini boshqarishda axborot va kommunikatsiya. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning asosiy funksiyalari.

Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash tizimi va uning asosiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. Boshqaruvchi-rahbar shaxsiga qo'yilgan talablar.

Kasbiy kompetentlik fani bo'yicha mavzular.

Kasbiy kompetentlik fanining ilmiy tadqiqot metodlari. SHaxsning kasbiy shakllanishi. Boshqaruvda shaxsning pedagogik-psixologik hususiyatlari.

Kasbiy faoliyatdagi muammolar va ularni bartaraf etish. O'zini-o'zi nazorat qilish.

Kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar.

Rahbarlarning kasbiy hususiyatlari.

Boshqaruv muloqoti. Muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir etish sifatida, muloqot insonlarning bir-birini tushunishi, muloqot texnikasi va usullari. SHaxslararo munosabatlar va ularda muloqotning o'rni.

Boshqaruv qobiliyati. Layohat va qobiliyat. Qobiliyatlar tuzilishi, turlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdullina O. A. Oliy pedagogik ta'lim tizimidagi o'qituvchining umumiy pedagogik tayyorgarligi. - M., 2000.- 141 S.
2. Avanesov V. S. Test bilimlarini nazorat qilishning ilmiy muammolari. - M., 1994.- 135 S.
3. Azizxodjaeva N. N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Jild: Mola, 2002.- 192 S.
4. Aliqulov H.A. O'rta Osiyo va Xuroson mutafakkirlarining estetik qarashlari (XIV-XV asrlar). - T.: Fan, 1992.- 98 S.
5. Angelovskiy K. O'qituvchilar va innovatsiyalar. O'qituvchining kitobi. - M.: Ta'lim, 1991.- 159 S.
6. Annamuradova S. K. O'zbekiston maktab o'quvchilarining badiiy-estetik tarbiyasi. - T.: Fan, 1991.- 370 S.
7. Asqarova O' va boshqalar "Pedagogika" T. Talqin -2008Y 392b
8. Asqarova O' va boshqalar "Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi" darslik Navro'z 2020y 456,
9. O'zbekiston tarbiyaviy tafakkurining antologiyasi / S. R. Radjabov, K. Xoshimov va boshq., M.: Pedagogika, 1986.- 320 b.
10. Babaxanov A. A. Xamzaning ijtimoiy-pedagogik va adabiy faoliyati. - T.: Ukituvi, 1979 yil.
11. V.V. Bartold, Ulug'bek va uning davri. Ishlar, II, Moskva: IVL, 1964 yil.
12. Batyshev A. S. Ajam o'qituvchi uchun amaliy pedagogika. - M., 2003 yil.
13. Bepalko V. P. Pedagogika va ilg'or o'qitish texnologiyalari. - M.: IRPO, 1996.- 336s.
14. Borodulin YU. S. Tuzatish pedagogikasi. - Rostov-Donu: Feniks, 2004 yil.
15. Gershunskiy B. S. XXI asr ta'lim falsafasi. - M., 2002.- 509 S.
16. X I. Ibragimov, SH.Abdullaev A. Pedagogika va ta'lim tarixi. Magistrantlar uchun darslik. - Vol.: Fan va texnologiya 2008, .- 240 S.
17. Izmailov A. E. Xalq pedagogikasi: O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining pedagogik qarashlari. - Moskva: Pedagogika, 1991. - 256 b.
18. Ingenkamp K. Pedagogik diagnostika. - Moskva: Pedagogika, 1991.- 240
19. Inoyatov U. I. kasb-hunar kollejida ta'lim sifatini boshqarish va boshqarish. Ilmiy usul. foyda. - T., 2004.- 1-4 C.

20. Pedagogika tarixi. Ma'ruzalar matnlari: Madyarova S.A., Jo'raboev D. - T.: 2001 yil.
21. E.R. YUzlikaeva, S.A. Madiyarova, E.E. YANBARISOVA, I.V. Morkova. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. darslik. Toshkent 2012 yil. 385
22. Pedagogika / Darslik. R.Mavlonova va b. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
23. Pedagogika / Darslik. M.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.Toxtaxodjaeva tahriri ostida. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.
24. Pedagogika i psixologiya vysshey shkoly: Uchebnoe posobie/Otv. Red. M.V. Bulanova-Toporkova. – 3-e izd. – Rostov n/D: Feniks, 2006.
25. Pedagogika / Nopedagogik OTM uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
26. “Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash” moduli bo'yicha o'quv-met. majmua / Tuzuvchi: T.T.SHOymardonov. – T.: BIMM, 2015.
27. Qaldibekova A,S., Xodjaev B.X. Talabalarning bilish faolligini oshirish yo'llari. – Toshkent: TDPU, 2006.
28. Hayitov A. Sinf rahbari / O'rta maktablarning sinf rahbarlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008.
29. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009.
30. Tursunov I.Y. Xalq pedagogikasining dolzarb muammolari. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 14-b.
31. Tursunov I.Y., Nishonaliev U.N. Pedagogika kursi. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 49-63-b.
32. Turg'unov S.T., Ahmadjonova N. M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi jurnali. – 2012. – № 1. – 133-134-b.
33. Turg'unov S.T., Ahmadjonova N. M. Osobnosti upravleniya doshkol'nyimi obrazovatel'nyimi uchrejdeniyami. // Voprosy gumanitarnyx nauk, Moskva. – 2012. – № 2. – 80-82-b.
34. Turg'unov S.T. Pedagogika: Ma'ruzalar to'plami. – Namangan: NamMPI, 1999. – 109 b.
35. Turg'unov S.T. Maktabni boshqarishda pedagogikaning asosiy tushunchalari va tadqiqot metodlari. – Namangan: NVPQTMOI, 2003. – 32
36. Turg'unov S.T. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq” nomli ma'ruzasini o'rganish va targ'ib etishda maktab rahbarlarining vazifalari: Uslubiy qo'llanma. – Namangan: NVPQTMOI, 2004. – 16 b.
37. Turg'unov S.T. Zamonaviy maktab rahbarlarining funktsional vazifalari. – Namangan: NVPQTMOI, 2004. – 34 b.
38. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari-ning malakasini oshirish kursi tinglovchilari uchun ta'lim boshqaruvi (menejment)dan o'quv dasturi. – Toshkent: O'zPFITI, 2005. – 19 b.
39. Turg'unov S.T. Boshqaruv jarayonida tarbiyaviy munosabatlar // Maktab va hayot jurnali. – 2006. – № 1. – 20-23-b.
40. Turg'unov S.T., Uluqov N.M., SHodmanov Q.O., Maqsudova L.A. Ta'lim muassasalarida boshqaruv. Qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2008.
41. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umaraliev M.A., Tojiboeva X.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Qo'llanma. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
42. Turg'unov S.T., Axmedova N.Q., SHodmanov Q.O. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Qo'llanma. – Namangan: “Namangan”, 2012.

43. Turg'unov S.T, Ahmedov F.X., SHodmanov Q.O., Ahmedova N.Q., Otajonova D.M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. Qo'llanma. – Namangan: “Namangan”, 2012.
44. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

Internet va ziyonet saytlari:

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
6. www.nadlib.uz
7. <http://teoriya.ru>

Magistraturaga mutaxassislik fanlaridan kirish imtihonini baholash mezonlari

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha kirish imtihoni **birinchi bosqichi** test shaklida o'tkaziladi.

Kirish imtihonining test savollari tegishli mutaxassislik bo'yicha tuzilgan imtihon dasturiga kiritilgan mos bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi mutaxassislik hamda ixtisoslik fanlaridan tuziladi.

Mutaxassislik uchun o'tkaziladigan imtihon jarayonida har bir abituriyentga imtihon dasturlariga muvofiq **50** ta test savoli taqdim etiladi.

Har bir test savoli uchun **2** ball (jami: **100** ball) ajratiladi.

Abituriyentga taqdim etilgan har bir test topshirig'ini bajarish uchun **2** minut ajratiladi.

Test sinovi uchun belgilangan umumiy vaqt – **2** soatni tashkil etadi.